PEDAGOGIKA

UDK 30.303-02 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a12

O‘QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI VA ZARURIYATI

ОСОБЕННОСТИ И НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

CHARACTERISTICS AND NECESSITY OF DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE

Qodirov Olim Odilovich[1]

[1]**Qodirov Olim Odilovich** – Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilini oqitishda o‘quvchilarning kommunikative kompetensiyasini rivojlantirishning o‘ziga xosligi va zarurati uning tarkibiy qismlari va sifatli ta’limga erishishda kommunikativ kompetensiyaning roli kabi masalalari, hamda sifatli ta’lim natijasida o‘quvchi-yoshlarni kelajak hayotdagi kommunikativ faoliyatga tayyorlash umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biri sanalishi hususida fikr yuritiladi.

Аннотация

В данной статье раскрываются уникальность и необходимость развития коммуникативной компетенции учащихся в обучении английскому языку, ее составляющие и роль коммуникативной компетенции в достижении качественного образования, а также подготовка учащихся к коммуникативной деятельности в дальнейшей жизни. Так же рассматривается вопрос качественного воспитания считается, которое считается одним из основных задач образовательного процесса общеобразовательной школы.

Abstract

This article reveals the uniqueness and necessity of developing the communicative competence of students in teaching English, its components and the role of communicative competence in achieving quality education, as well as preparing students for communicative activities in later life. The issue of quality education is also considered, which is considered one of the main tasks of the educational process of a comprehensive school.

Kalit so‘zlar: *Kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ta’lim jarayoni, ta’lim natijalari, bilim, ko‘nikma, pragmatic kompetensiya, hususiy kompetensiya, axboriy mazmun, ijtimoiy mazmun.*

Ключевые слова: *Компетентность, коммуникативная компетентность, образовательный процесс, образовательные результаты, знания, умения, прагматическая компетентность, специальная компетентность, информационное содержание, социальное содержание.*

Key words: *Competence, communicative competence, educational process, educational results, knowledge, skills, pragmatic competence, special competence, information content, social content.*

KIRISH

Hozirda barcha ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablarga ko‘ra bo‘lajak kadrlarni kasbiy-kommunikativ faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, ya’ni ularda kasbiy malaka, o‘zgaruvchan sharoitga tez moslashish qobiliyati, kommunikativ kompetenlik, o‘zining kommunikativ bilimlarini doimiy ravishda to‘ldirib borish talab etiladi. O‘quvchilarda kommunikativ bilimlardan ijodiy foydalanish ko‘nikmalari rivojlangan bo‘lishi lozim. Buning uchun esa umumiy o‘rta ta’lim jarayonidan o‘quvchilarni kommunikativ faoliyatga tayyorlab borish, ularda turli kompetentsiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ta’kidlash joizki, hozirgi kunda o‘quvchilarga turli fanlarni o‘qitishda kompetentsiyaviy yondashuv keng tatbiq etilmoqda. Shuningdek, ularga fanga oid bilim, ko‘nikma, malakalar berishning o‘zi yetarli emasligi, hosil qilingan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo‘llashni shakllantirib borish lozim ekanligi o‘z isbotini topdi. Shu sababdan kompetentsiyalarga bo‘lgan talab uzluksiz ta’limning barcha bosqichlariga kirib bordi hamda amalda foydalanilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar va rivojlangan davlatlarda ta’lim natijalari nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalar orqali, balki shaxsning ta’lim jarayonida egallagan kompetentsiyalari orqali aniqlanishi ta’kidlanadi. Kompetentsiya - bu o‘quv jarayonining rejalashtirilgan maqsadi, usullari, texnologiyasi va bilim oluvchining malakasi asosida shakllanadi.

“Kompetentsiya” tushunchasi ilk marotaba XX asrning 60-70-yillarida AQSH Massachusets

universitetida Noam Xomskiy tomonidan “til kompetentsiyasi” (language competence) orqali amaliyotga kiritilgan va unga quyidagicha ta’rif berilgan: “Kompetentsiya – tilni qo‘llash jarayonidagi faoliyatga yo‘nalgan bilim, malaka va ko‘nikmalar majmui”dir[1]. Ba’zi manbalarda esa 1959-60-yillarida R.Uayt asarlarida “Kompetentsiya – inson hayoti shaxs motivatsiyasiga (motivation reconsidered the concept of competence) asoslangan yaxlit konsepsiya” sifatida talqin qilingan[2]. Umumiy holatda, Yevropada ushbu atama 1970-yillarda qo‘llana boshlandi.

“Kompetentsiya” lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman degan ma’nolarni bildiradi[3]. Kompetentsiya – subyektning maqsadni qo‘yish va unga erishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni birlikda samarali tashkil eta olishga tayyorgarligi, subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.

Oksford lug‘atida kompetentsiya “biror narsani muvaffaqiyatli, eng samarali bajara olish qobiliyati”[4] deb ta’riflanadi. Ingliz tilida “skill” atamasi oldindan belgilangan natija bilan vazifani bajarish qobiliyatini bildiradi. Ushbu atamani “kompetentsiya” so‘zining ma’nosiga yaqin deb izohlaydi.


Pedagog olimlar R.Safarova va R.Jo‘rayevlar tomonidan “kompetentsiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif taklif etilgan: (lot. compete-erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish o‘rgani) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav va boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, xuquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 3) shaxsning biror bir sohadan habardorligi, shu sohani bilish darajasi[5].

N.M.Muslimovning ta’kidlashicha inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi “qobiliyat” demakdir, biroq “kompetentsiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi”[6].

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Zamonaviy davrda pedagogik ilmlar tasnifida aynan mutaxassis-kadr kompetensiyasi masalasi o‘z dolzarbligi, katta qiziqish uyg‘otayotganligi va ta’lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta’minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda.

F.Ye.Nazarenko tomonidan ishlab chiqilgan chet tilini o‘rganayotgan talabaning kommunikativ kompetentsiyasining quyida[7] ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda bir-birini to‘ldiradi hamda yaxlit majmuani hosil qiladi (1.2.1-rasmga qarang). Bunda kompetentsiyaning tarkibiy qismlari bilim, ko‘nikma va malakalarni baravar qo‘llash orqali yuzaga keladi.



1.2.1-rasm. Ye.Nazarenko tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetentsiyasi ko‘rinishi

O.Marina chet tili bo‘yicha kasbiy kompetentsiyaning tasnifli komponentlarini o‘rganishda kommunikativ vaziyatlarni 4 guruhga ajratgan:

- kommunikativ kompetentsiyaning tasnifli komponenti;
- muloqotga ta’sir qiluvchi omillar;

- kommunikativ mazmun;
- muloqotga kirishuvchanlikdir[8].

Kommunikativ kompetentsiya – bu muloqot qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma va malakalar, turli aloqalar sohasida hissiy va ijtimoiy tajribani o‘z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir.

O‘z navbatida kommunikativ qobiliyat quyidagilardan iborat:

– muloqot qilish kerak bo‘lgan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini berish;

– muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan dasturlash, kommunikativ vaziyatning o‘ziga xosligiga asoslangan;

– kommunikativ vaziyatda aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish.

Kommunikativ kompetentsiya umumiy madaniyatni va uning professional faoliyatida o‘ziga xos namoyonlarini sintez qiluvchi integral sifatdir. Kommunikativ kompetentsiyaning shartlaridan biri, muayyan qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng muhimlari quyidagilar:

1) umumiy qoida – bu fikr tushunilmagan yoki to‘liq anglanmagan bo‘lsa, aloqa o‘rnatishning iloji bo‘lmasligi;

2) tushunish uchun doimiy tayyorgarlik qoidasi – ko‘pincha semantik va shaxsiy to‘siqlar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha xabarlarni to‘liq va noto‘g‘ri tushunishga olib kelishi;

3) aniqlik qoidasi – noma’lum, noaniq so‘zlardan qochish va begona yoki yuqori ixtisoslashgan atamalardan vaziyatdan kelib chiqib foydalanish;

4) signallarni nazorat qilish qoidasi – faqat nutq va xabarning mazmunini nazorat qilish yetarli emas. Bundan tashqari, uning tashqi eskort – yuz ifodalar, imo-ishoralar, intonatsiya va pozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan qismida uning shaklini nazorat qilish.

5) joy va vaqt qoidasi – har qanday xabarning samaradorligi o‘z vaqtida amalga oshiriladigan eng munosib vaziyatni tanlashda keskin oshishini nazarda tutish;

6) ochiqlik qoidasi – yangi vaziyatlarning ta’siri ostida o‘z nuqtai nazarini qayta ko‘rib chiqishga tayyor bo‘lishni, shuningdek, suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish;

7) faol va konstruktiv tinglash qoidasi – samarali kommunikatsiya-larning asosiy sharti;

8) fikr-mulohaza qoidasi – bu kommunikativ jarayonning asosiy maqsadiga erishishni ta’minlaydi, ya’ni o‘zaro bir-birini tushunish[9].

Kommunikativ kompetentsiya asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- muloqotni tashkil qilish
- shaxslararo muloqot ko‘nikmasi;
- muloqotni, kontaktni saqlash, teskari aloqani o‘rnatish;
- muloqot natijalarini analiz qilish[10].

Keng axborot makoniga ega bo‘lgan zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi o‘quvchi-yoshlardan kommunikativlikni talab qilmoqda. Bunda esa tilni o‘rgatishning yuqori texnologiyalarini jadal rivojlantirish, uning doirasida komunikativ qobiliyatlarni rivojlanishi kutilmoqda. Shuningdek, zamonaviy jamiyatning eng muhim ustuvorliklaridan biri ham – bu shaxsning kommunikativ kompetentsiyaga egaligi sifatida e’tirof etilmoqda. Har bir o‘quvchi shaxs sifatida rivojlanishi, o‘zini o‘zi anglashi va shaxsiy o‘sishi, shakllanishi, uning ijobiy o‘zini o‘zi tushunishi, avvalo, unda shaxsiy kommunikativ kompetentsiyani shakllanganlik darajasiga bog‘liq.

O‘qituvchi, avvalo, o‘quvchining kommunikativ kompetentsiyasi shakllangan yoki qisman shakllangan bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qaratishi va uning keyingi rivojlanishida e’tiborga olinish lozim. Shuningdek, o‘quvchilarning yoshi va o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bosqichma bosqich va kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish diagnostikasini amalga oshirish lozim.

Umumiy o‘rta ta’limda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, bu asosan o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va pedagogik muhitga bevosita bog‘liqdir.

D.R.Kadyrbaevoy, I.L.Engelsalarning ta’kidlashiga ko‘ra, o‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishning psixologik va pedagogik xususiyatlari sifatida quyidagi elementlarni keltirish mumkin:

1) temperament xususiyatlari;
2) asosiy xarakter xususiyatlari;
3) asosiy qobiliyatlar;
4) o‘qishga munosabat;
5) kognitiv jarayonlarning xususiyatlari;
6) guruhning boshqa a’zolari bilan muloqot qilish xususiyatlari;
7) ta’lim ko‘nikmalarining mavjudligi;
8) guruhning birgalikdagi faoliyati;
9) guruhning ijodiy salohiyati va ijodiy faolligi;
10) motivatsion komponent xususiyatlari;
11) o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi va uning adekvatligi;
12) tartib-intizom.

O‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash, jamoaning shaxsiy va guruhiy xususiyatlariga asoslangan metodologiyasini yaratishga imkon beradi. Shu bilan o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning aniq usullarini tanlash samarali bo‘ladi.

Izlanishlarimiz doirasida tadqiqotchi-olimlarning “kommunikativ kompetentsiya” tushunchasi mazmuni va ushbu kompetentsiya tuzilishiga oid yondashuvlarni tahlil qilgan holda o‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning o‘ziga xos muhim pedagogik o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatamiz (1.2.2-rasmga qarang):



1.22-rasm. O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik o‘ziga xosliklari

O‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlagandan so‘ng, kelgusida o‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasining rivojlantirish darajasini diagnostika qilish haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Ushbu daraja ko‘rsatkichlari tadqiqotchilar tomonidan turlicha tadqiq etilgan. Xususan, L.N.Bulыginoy o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning quyidagi darajalarini keltirib o‘tadi[11]:

1. Reseptiv daraja. Ushbu rivojlantirish darajasi aloqada mustaqillikning past darajasi bilan tavsiflanadi, majburiy moslashish. Nutq faoliyati tinchlikka tahdid sifatida qaraladi;

2. Konformal (past) daraja. Kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish-ning ushbu darajasida o‘quvchi boshqalarning fikriga to‘liq qo‘shiladi.

3. Reproduktiv (o‘rta) daraja. Ushbu darajasida o‘quvchi o‘z-o‘zini anglashga muhtoj, ammo kommunikativ faoliyatdagi mustaqillik reproduktiv xususiyatga ega bo‘lib, uning stereotipli

ko‘rinishlariga moyil bo‘ladi: ilgari muvaffaqiyatli yoki boshqalar tomonidan sezilgan o‘zaro ta’sir usullari takrorlanadi.

4. Mahsuldor (yetarli) daraja. Kommunikativ faoliyatda mustaqillik, o‘z pozitsiyasini og‘zaki yoki yozma ravishda ifodalash qobiliyati bilan tavsiflanadi. O‘quvchilar kommunikativ faoliyatda mustaqil innovatsiyalardan foydalanadi.

5. Ijodiy (yuqori) daraja. O‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish va o‘quvchining shaxsiy o‘zini o‘zi anglashdagi ustuvor ehtiyoji bilan tavsiflanadi. Kommunikativ faoliyat tashqi omillar bilan emas, balki tizim tomonidan tartibga solinadi. Kommunikativ faoliyat o‘zgaruvchan va ijodiy tabiatga ega.

XULOSA

Bugungi axborotli jamiyat – bu eng oliy darajadagi kommunikativ kompetentsiyaga ega bo‘lishning muhim va ajralmar qismi bo‘lib, tubdan isloh etilib borayotgan “Yangi O‘zbekiston”ning uzluksiz ta’lim tizimi uchun muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Ta’lim tizimlariga xos bo‘lgan bir xillik va an’anaviylikka qaramay, yaqin kelajakdagi islohotlar ta’lim standartlari, kelajakdagi turli xil kompetentsiyalarni shakllantirish bo‘yicha ta’lim dasturlarining tuzilishini real hayotga mos tarzda to‘liq qayta o‘rganib chiqish, yangiliklar kiritishni taqazo qilmoqda.

Maqsadni aniq belgilash va ushbu maqsadga erishish yo‘lida har qanday obyektiv-subyektiv omillar yuzaga kelmasin, “o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo‘lishning o‘zi katta baxt, katta sharafdir” [12]

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси / https://president.uz/uz/lists/view/4057[1]

2. Муслимов Н. А., Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологиялари. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 б.

3. Булыгина Л.Н. Критериально-уровневый подход к оцениванию сформированности коммуникативных компетенций. / Учебно-методическое пособие для педагогических работников. – Н. Тагил: НТФ ИРРО, 2008 г

4.Коммуникативная компетентность. Электронный ресурс: https://ru.wikipedia.org/wiki/Коммуникативная_компетентность. Дата обращения: 29.09.2019.

5. Марина О.А. Структурные компоненты иноязычной профессинальной компетенции как профессинального стратегического ресурса // Педагогические образование и наука. — № 5. — Москва, 2014. — 113 с.

6. Назаренко Е.Б. Коммуникативнач компетенция: подходы к классификации, структура // Сборники конференций НИЦ. Социосфера. – Вып. № 22. 2013. – С. 81-86.

7. Safarova R,. Jo‘rayev R. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – 2015. – B. 184.